

JADID TAFAKKURI VA ZAMONAVIY DAVLAT QURILISHIDA
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MEROSI

Normuhammadov Oyatilloh

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo’nalishi

1-bosqich talabasi

+998 90 631 62 12

Ilmiy rahbar: Qo’ysinova Fazilat Oripovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” kafedrasida dotsenti, Siyosiy fanlar doktori (DCs)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mahmudxo’ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik, milliy ong va matbuot erkinligi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi hamda ularning zamonaviy O’zbekiston islohotlari bilan uzviy bog’liqligi ochib beriladi. Muallif Behbudiy ilgari surgan “ma’rifat orqali taraqqiyot”, “milliy o’zlikni anglash” va “erkin fikr maydoni” g’oyalarning bugungi ta’lim tizimi islohotlari, konstitutsiyaviy yangilanishlar hamda axborot makoni rivoji misolida amaliy ifodasini ko’rsatadi. Maqolada jadidlar merosining tarixiy davomiyligi va uning hozirgi davlatchilik konsepsiyasidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

***Kalit so’zlar:** Mahmudxo’ja Behbudiy, jadidchilik, ma’rifat, “Turkiston Muxtoriyati”, milliy ong, milliy davlatchilik, ta’lim islohoti, matbuot, fuqarolik jamiyati.*

Abstract

This article analyzes the educational, national consciousness, and press-related ideas of Mahmudxo’ja Behbudiy and examines their relevance in the context of contemporary reforms in Uzbekistan. The study highlights Behbudiy’s principles of “progress through enlightenment,” “national self-awareness,” and “freedom of thought” and demonstrates their practical reflection in modern educational reforms, constitutional transformations, and the development of the information space. The

paper argues that Jadid intellectual heritage maintains historical continuity and plays a significant role in shaping the modern state-building concept of Uzbekistan.

Keywords: *Mahmudxo'ja Behbudiy, Jadidism, enlightenment, "Turkestan Autonomy", national consciousness, statehood, education reform, press, civil society.*

Аннотация

В данной статье анализируются просветительские взгляды Махмудхўжа Бехбудий, его идеи о национальном самосознании и роли печати, а также их актуальность в условиях современных реформ в Узбекистане. Рассматривается концепция «прогресса через просвещение», формирование национальной идентичности и развитие свободного общественного мнения в контексте реформ системы образования, конституционных изменений и расширения информационного пространства. Подчеркивается историческая преемственность джадидского наследия и его значение для современной государственности.

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, просвещение, "Туркестанская автономия", национальное самосознание, государственность, реформа образования, печать, гражданское общество.*

Tarixan ma'lumki, XIX asr oxirlarida xonliklarning uzoq yillik, mutaassib siyosati natijasida Turkiston aholisi siyosiy tafakkur jihatdan sustlashib, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilishi parchalangan edi. Ammo, Yevropa davlatlarida yuz berayotgan etnik mojaro va diniy urushlar ko'plab millatlarni birlashishga, o'z milliy o'zligini anglashga undagan, ushbu jarayonlar Turkiston ziyolilariga ham milliy ongni uyg'otish zaruratini yuklardi. Olimlar yondashuvlariga ko'ra milliy ong o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u shakllantiriladi. Millat kishilarning barqaror tarixiy birligi bo'lib, umumiy turmush, til, madaniyat, ong va ruhiyatning birligi, o'ziga xosligi negizida qaror topadi. Milliy ong ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, boshqa millatlar bilan muloqoti jarayonida paydo bo'ladi.¹ Biroq millat bo'lish uchun faqat til va din yetarli mi? Xonliklar davrida til, din, tarix hamda xalqlarning madaniyati umumiy edi, lekin siyosiy birlik, siyosiy manfaat, siyosiy subyekt sifatida "yagona turkiston xalqi"

¹ <https://oyina.uz/uz/teahouse/2018>

kabi tushinchalar yo'q edi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, XIX asr oxirida Turkiston hududida millat tushunchasi diniy va hududiy identitet bilan qorishiq holda mavjud bo'lgan, ammo zamonaviy siyosiy millat konsepsiyasi shakllanmagan edi.² Aynan shu tarixiy sharoit jadidchilik harakatining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Amerikalik tarixchi Adib Xalid jadidchilikni “musulmon jamiyatini ichkaridan isloh qilish va uni zamonaviy siyosiy ongga olib chiqish harakati” deb ta'riflaydi³. Uning fikricha, jadidlar uchun asosiy maqsad siyosiy hokimiyat emas, balki jamiyat tafakkurini o'zgartirish edi. Ularning faoliyatini tushinish uchun xonliklar davridagi siyosiy-madaniy holat tahliliga e'tibor qaratish lozim. Bu davrda asosiy siyosiy birliklar Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi edi, ammo “Turkiston millati” degan yagona identitlik shakllanmagan, aksincha, uchala xonlik aholisi etnik kelib chiqishi bir xil bo'lishiga qaramay, o'zlarini “buxorolik”, “qo'qonlik”, “xivalik” deb anglar edi. Asosiy birlashturivchi omil islom dini hisoblangan, shuning uchun bu jamiyatda millat emas, ummat tushunchasi ustun edi. Bundan tashqari 1860-1917-yil oralig'ida Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni egalladi, natijada, xonliklarning siyosiy mustaqilligi tugatildi, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi va mahalliy boshqaruv rus ma'muriy tizimi bilan cheklandi. Qiziq jihati shundaki, Rossiya istilosi milliy ongning shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki, aynan shu davrda tashqi bosim ostida qolgan xalq tafakkurida “biz” va “ular” tushunchalari paydo bo'la boshladi. Mustamlakachilik milliy ongning shakllanishini tezlashtirdi. O'zbekiston tarixini o'rgangan olim Edvard Olvord ta'kidlashicha, Rossiya imperiyasi hukmronligi mahalliy aholi orasida o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi, chunki mustamlaka sharoiti “mahalliy” va “imperial” tafakkur o'rtasidagi farqni keskinlashtirdi.⁴ Shuningdek, eski tartibdagi ta'lim tizimi, maktablarda faqat diniy ta'lim yo'lga qo'yilganligi sababli aholining ko'plab qismi dunyoda bo'layotgan voqealar, jahon siyosati va zamonaviy fanlardan uzilib qolgan edi. Shu o'rinda savol tug'iladi: agar jamiyat siyosiy va ilmiy jihatdan orqada qolgan bo'lsa, qanday qilib ular o'rtasida milliy ongni shakllantirish mumkin? Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida jadidlar xalqning savodsizligi tugatish, aholining dunyoqarashini oshirish, siyosiy ongni shakllantirish, odamlarni savodli qilish uchun maktablar, teatrlar ochishdi, zamonaviy darsliklar, gazetalar, jurnallar chop etishdi va shu kabi ko'plab

² O'zbekiston tarixi (XIX–XX asr boshlari). Toshkent: Fan, 2014.

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/06/adib-xolid/>

⁴ Allworth E. (ed.) *Central Asia: 120 Years of Russian Rule*. Durham, 1989.

islohotlar amalga oshirishdi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy bu harakatning yetakchi namoyandaligidan biri edi.

Behbudiyning faoliyat yo'nalishiga e'tibor berilsa, u bevosita siyosiy hokimiyat uchun kurashdan ko'ra, avvalo xalqni ma'rifat orqali uyg'otishga harakat qilganini ko'ramiz. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalaridan birida: "Najot yo'li — ma'rifatdadir, jaholat esa millatni halokatga olib borur", — deya ta'kidlaydi.⁵ Bu fikr uning butun faoliyatining nazariy asosini ifodalaydi. Behbudiy 1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (*keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan*) kutubxonasini ochgan. 1913-yildan matbuot ishlarini yo'lga qo'yagan va shu yilning apreldan "Samarqand" gazetasi hamda avgust oyidan "Oyina" jurnali chiqqan boshlagan.⁶ Behbudiy matbuotni milliy ongini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rdi. Chunki savodsiz va siyosiy axborotdan uzilgan jamiyat mustaqil siyosiy qaror qabul qila olmaydi. Shuning uchun Behbudiy jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar va ilmsizlikni sahnada ko'rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da'vat etish maqsadida 1914-yili milliy teatrga asos solgan va "Padarkush" dramasini yozgan. Ushbu asarda otasining sharofati bilan beg'am, betashvish hayot kechirayotgan, hayotning achchiq-chuchugini tortib ko'rmagan, bir so'z bilan aytganda, ko'ksiga sovuq shamol tegmagan Toshmurod (boyning o'g'li) tarbiyasizlik, bilimsizlik oqibatida yomon yo'lga kirib ketadi va o'z otasini o'ldirib qo'yadi. Asar nomidagi "padarkush" (ota qotili) tushunchasi aynan shu obraz orqali ochiladi. Bu asarning asosiy mazmuni shundan iboratki, ota-ona farzand tarbiyasiga beparvo bo'lsa, jamiyat ilm-ma'rifatdan uzoq bo'lsa, albatta, natijada fojia yuz beradi. Shu sababli "Padarkush" oddiy oilaviy drama emas — u butun jamiyatning ogohlantiruvchi ramziy asaridir. Ushbu hodisa aholining dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan, milliy ongini shakllantirish uchun avval kishilarning ma'rifatini oshirish yo'lida islohotlardan biri edi.

Shu o'rinda Behbudiy bunday islohotlarni amalga oshirish haqida qayerdan kuch olgan, qanday qilib o'zi yashab turgan jamiyat ichidagi kamchiliklarni ko'ra olgan degan savol tug'iladi. 1899 – 1900-yillari Mahmudxo'ja Behbudiy haj ziyoratiga borgan. Shu sayohati davomida Makka, Madina, Istanbul, Qohira kabi shaharlarda bo'ldi va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) masjidi va ilmiy muhit bilan tanishish mobaynida Misrdagi ma'rifiy harakatlar bilan qiziqqan, Usmoniylar davlati poytaxtidagi islohotlar va zamonaviy maktab tizimi bilan tanishgan.⁷ Bu safar Behbudiy uchun oddiy diniy ziyorat emas, balki musulmon dunyosining siyosiy

⁵ Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, 1999.

⁶ <https://jadidlar.uz/jadidlar/56>

⁷ <https://oyina.uz/uz/article/2924>

ahvolini ko'rish, taraqqiyot va tanazzul sabablarini anglash hamda Turkistonni isloh qilish zaruratini tushunish imkonini bergan ma'rifiy safar edi. Vataniga qaytgan Mahmudxo'ja Behbudiy tariximizning tanazzul bosqichlari, sabablarini taftish qilgan, bu masalalar borasida maslakdoshlari Baqo Hoji, Ho'qandboy Abduxoliq o'g'li, Badriddin singari dunyoqarashi keng insonlar bilan munozaralar o'tkazgan. 1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy Halvoyi, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochganlar.⁸

1917-yillarda Birinchi jahon urushi hamda inqiloblar tufayli Rossiya imperiyasi zaiflashgan. Bunday fursatdan ziyolilar foydalanib qolishga uringan, biroq oktyabrda Rossiya hokimiyatini to'liq egallagan bolsheviklar yeng shimarib mustamlakachilik siyosatini kuchaytirishga kirishganlar. Millat oydinlari yangi hukumatdan muxtoriyat talab qila boshlaganlar. 1917-yil 26-noyabr kuni Qo'qon shahrida o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirilgan va Turkiston muxtoriyati tashkil etilgani e'lon qilingan. Yangi Turkiston asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, millat fidoyisining ozodlikka bo'lgan intilishi, uni intiqib kutgani "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 22-dekabr sonidagi "Turkiston muxtoriyati" sarlavhali maqolasidagi quyidagi fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: "27-noyabrda Ho'qandda Turkiston muxtoriyati Umumiy musulmon se'zdida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lganim uchun iftixor etaman. Yashasun, Turkiston muxtoriyati! ...Shuni bilmoq kerakki, butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedodlik ixtilof etmoq uchun ittifoq etganmiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtliqg'a duchor bo'lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvat ummong'a kelurki, shunga yer titraydur. Agar so'zumni fahmlata olgan bo'lsam, o'zimni baxtli hisoblardim"⁹. Behbudiyning yuqoridagi barcha turkistonliklar bir-biri bilan og'a-inidek birlashishi lozimligi haqidagi fikrlari ham ommaning milliy ongini ochishga qaratilgan da'vat sifatida ko'rishimiz mumkin.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, milliy o'zlikni anglamagan jamiyat mustaqillikni saqlab qola olmaydi. Atiga 72 kun faoliyat olib borgan "Turkiston Muxtoriyati" bu vaziyatga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki o'sha davrda siyosiy mustaqillik haqidagi tushunchalar aholining barcha qatlamida to'liq shakllanmagan edi, shu sababli ijtimoiy voqelardan bexabar bo'lgan xalq jadidlarning harakatlarini qo'llab quvvatlamadi. Chunki siyosiy mustaqillik tashqi omil bo'lsa, milliy ong ichki

⁸ <https://oyina.uz/uz/article/2924>

⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/27/muxtoriyat/>

omildir. Ichki birliksiz tashqi suverenitet mustahkam bo'la olmaydi. Behbudiy aynan shu ichki asosni yaratishga harakat qildi. Uning fikricha, millatni uyg'otishning uch asosiy sharti mavjud edi:

1. Zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish;
2. Matbuot orqali siyosiy tafakkurni shakllantirish;
3. Ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini rivojlantirish.¹⁰

Bu faoliyat siyosiy hokimiyatni egallashdan ko'ra chuqurroq maqsadni ko'zlagan, ya'ni millatni ongli siyosiy subyektga aylantirish edi. Demak, Behbudiy konsepsiyasida davlat millatdan keying o'rinda turadi. Avval ichki birlikni shakllantiruvchi milliy ong, so'ng siyosiy institut, boshqacha qilib aytganda avval ma'rifat, keyin mustaqillik. XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish jarayoni aynan shu yo'sinda kechdi: jadidlar avvalo oddiy xalqning tafakkurini rivojlantirishga harakat qildilar. Chunki ular siyosiy ozodlikni ma'naviy va intellektual ozodliksiz tasavvur qilmaganlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Behbudiy faoliyati siyosiy harakatdan ko'ra ko'proq milliy ong inqilobi edi. Islom Karimov milliy o'zlikni davlat mustaqilligining ma'naviy poydevori sifatida baholab, "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" ekanini alohida ta'kidlaydi.¹¹ Bu fikr Behbudiyning ma'rifat va milliy ong haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Hozirgi kunda ham Mahmudxo'ja Behbudiyning ilgari surgan g'oyalari bugungi islohotlar mazmunida yangi tarixiy shaklda namoyon bo'lmoqda. "Risolai asbobi savod" va "Padarkush" asarlarida u jaholatni taraqqiyot yo'lidagi eng katta to'siq sifatida talqin qiladi. Bugungi kunda bu g'oya davlat siyosatida aniq ifoda topmoqda. Xususan, 2017–2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi, xorijiy OTM filiallari faoliyati kengaydi (masalan, Westminster International University in Tashkent va Inha University in Tashkent). 2019-yilda qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" esa kredit-modul tizimini joriy etish va xalqaro standartlarga moslashishni belgilab berdi. Bu jarayonlar Behbudiy orzu qilgan zamonaviy, dunyoqarashi keng avlodni shakllantirish sari tashlangan amaliy qadamlardir. Ikkinchidan, u milliy ongni mustaqil davlatchilikning asosi deb bilgan. Behbudiy o'z maqolalarida "millat o'z haq-huquqini bilmasa, boshqalar qo'lida qoladi"¹² degan mazmundagi fikrlarni ilgari suradi. Ushbu jihat O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar (2023-yilgi yangi tahrir), fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va

¹⁰ Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, 1999

¹¹ Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent, 2008.

¹² Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, 1999

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasida suverenitet hamda milliy manfaat tushunchalarining markaziy o‘rinni egallashida o‘z ifodasini topgan. Bu milliy o‘zlikni siyosiy ong darajasiga ko‘tarish jarayonining davomi sifatida talqin qilinadi. Bu borada davlat dasturlari va rasmiy nutqlarda milliy davlatchilik va fuqarolik mas‘uliyati masalasi muntazam ta‘kidlanmoqda. Uchinchidan, Behbudiy matbuotni milliy uyg‘onishning asosiy vositasi deb baholagan. U tashkil etgan “Samarqand” gazetasi va Oyina jurnali orqali jamiyatni ochiq fikr va tanqidiy tafakkurga chorlagan¹³. Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari faoliyati yanada kengayib, nodavlat nashrlar va raqamli platformalar ko‘paydi. Axborot erkinligini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va jurnalistlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tashabbuslari — jadidlar boshlab bergan fikriy uyg‘onishning zamonaviy ko‘rinishidir.

XX asr boshida mustabid tuzumga qarshi chiqib, xalqning mustaqillikka intilishi, ma‘rifatga erishishi uchun o‘z jonini ayamagan jadidlarning g‘oyalari bugungi kunga kelib o‘z ifodasini topganmi? Behbudiy ilgari surgan “avval ong, so‘ng davlat” tamoyili tarix sahifasida qolib ketgan shior emas. Bugungi kunda Ma‘rifat ta‘lim islohotlarida, milliy o‘zlik konstitutsiyaviy yangilanishlarda, erkin fikr esa axborot makonidagi ochiqlikda o‘z aksini topmoqda. Jadidlar orzusi bo‘lgan uyg‘oq millat g‘oyasi institutsional asosga ega bo‘lib bormoqda. Jumladan, mustaqil milliy davlat — O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda tashkil topdi. So‘ngingi yillarda ta‘lim va ko‘plab islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, eng asosiysi aholining milliy va siyosiy ongi shakllandi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston tafakkurida burilish yasagan milliy-siyosiy yetakchi edi. U jamiyat ongiga singib qolgan “musulmonchilik asta-sekin” degan loqayd va turg‘un kayfiyatni tanqid qilib, millatni ilmga, o‘zlikni anglashga va faol harakatga da‘vat etdi. Behbudiy uchun najot – zamonaviy tafakkur va uyg‘ongan milliy ongda edi. Uning hayoti va kurashi bir haqiqatni eslatadi: “Uxlagan millatning ustidan boshqalar hukmronlik qiladi.” Demak, millat yashashi uchun avvalo uning ongi uyg‘oq bo‘lmog‘i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://oyina.uz/uz/teahouse/2018>
2. *O‘zbekiston tarixi (XIX–XX asr boshlari)*. Toshkent: Fan, 2014.

¹³ https://uza.uz/oz/posts/jadid-matbuoti-samarqand-gazetasi-va-oyina-jurnali-video_775715

3. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/06/adib-xolid/>
4. Allworth E. (ed.) *Central Asia: 120 Years of Russian Rule*. Durham, 1989.
5. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, 1999.
6. <https://jadidlar.uz/jadidlar/56>
7. <https://oyina.uz/uz/article/2924>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/27/muxtoriyat/>
9. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, 1999
10. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent, 2008.
11. https://uza.uz/oz/posts/jadid-matbuoti-samarqand-gazetasi-va-oyina-jurnali-video_775715